

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 28 - oktabr

375-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar “Gulzar” MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 19-sentabrdagi 1-17/1-8/348-son xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi hamda vakolatli tashkilotlarning ijobiy kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nukus shahar hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan “Gulzar” MFY hududidan 0,2021 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda bekitib berilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi (E.Tursunov) bilan birgalikda doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilayotgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni qanunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilish choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 28-oktabrdagi
375-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Nukus shahri, "Gulzar" MFY hududidan Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya Vazirligi uchun tanlangan qosimcha bosh yer uchastkasi
TARXI
M:1:1000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Nukus shahri "Gulzar" MFY hududida joylashgan bo'lib, shimoldan ochiq maydon, sharqda ochiq maydon, janubda ochiq maydon, Garbda ochiq maydon

Koordinatasi:

1. 42°26'50.11"C 59°37'1.97"B
2. 42°26'48.51"C 59°37'3.76"B
3. 42°26'47.80"C 59°37'2.55"B
4. 42°26'49.38"C 59°37'0.82"B

Yer uchastkasining maydoni: 0.2021 ga (2021m²)

Yer fondi: Za xira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi:

Yerturi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan